

# TERMIZ SHAHRIDA YO'SHLAR BILAN ISHLASHNING YANGICHA TIZIMI AMALDA



## TERMIZ SHAHRIDA YO'SHLAR BILAN ISHLASHNING YANGICHA TIZIMI AMALDA

Davlatimiz rahbari raisligida joriy yilning 11 aprel kuni yoshlar siyosati sohasidagi ishlar natijadorligini oshirish hamda ular bilan ishlash tizimini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida belgilab berilgan topshiriqlar ijrosi Termiz shahrida ta'minlanmoqda.

Xususan, bugun shahar hokimi, 1-sektor rahbari O'ktam To'rayev "Bog'ishamol" mahallasida uyma-uy yurib o'ziga biriktirilgan yoshlar va ularning oila a'zolari bilan

uchrashdi. Shahar rahbari suhbat davomida yoshlarni qiynayotgan muammolar va so'ralgan amaliy yordamlarni berish bo'yicha mas'ullarga tegishli vazifalar yukladi.

Shuningdek, yoshlarning qator murojaatlari, jumladan, nogironligi bo'yicha jarrohlik operatsiya xarajatlarining to'lovi, davolanish uchun order olish, kasb-hunar va til o'rganish masalalariga amaliy yordam ko'rsatilishi belgilandi.

Image not found or type unknown

O'z navbatida sektor rahbarlari, hokim o'rinbosarlari, mas'ul tashkilotlar rahbarlari o'zlariga biriktirilgan yoshlar bilan uyma-uy yurish orqali yanigicha tizimda, manzilli o'rganish ishlarini davom ettirmoqdalar.






Image not found or type unknown

